



MUROJAAT BIRLIKLARINING LISONIY MAQOMI

Ro‘zmatova Nargiza Ollashukur qizi

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti)

nargizarozmatovandpi@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079956>

***Annotatsiya.** “Murojaat” nutq odobining muhim birliklaridan biri bo‘lib, u muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi omillardan hisoblanadi. Murojaat shakllari leksik-semantik, grammatika va uslubiyat nuqtayi nazaridan turli tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.. Murojaat turlarini tadqiq qilish kommunikativ pragmatik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar:** murojaat, lison, undalma, kommunikativ, pragmatik, so‘z.*

Dunyoning ko‘pchilik tillarda murojaat birliklarining grammatik jihatdan o‘xshashligi lingvistik tadqiqotlarda qayd etilgan. Xususan, o‘zbek, rus, ingliz va boshqa tillarda murojaat birliklarining tuzilishi va funksional xususiyatlari o‘zaro bog‘liq ekanligi ilmiy tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan. Rus tilshunosligida yetuk olimlar A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, A.G.Rudnev, A.M.Peshkovskiy, N.I.Formanovskayalar tomonidan har xil tadqiq qilinadi.

Professor A.M Peshkovskiy undalmalarni gap tarkibiga kirmaydigan va alohida gap bo‘la olmaydigan so‘zlar yoki so‘z birikmalari deb qaragan¹.

A.Potebnya undalmalarni gapning egasi degan qarashini², A.A.Shaxmatov tanqid ostiga olib, ularni gapning har qanday kommunikativ turi bilan kela olishi bilan asoslashga harakat qiladi³. A.G.Rudnev esa undalmalarni gapning uchinchi darajali bo‘lagi deb qaraydi⁴. Rus tilshunosligida murojaat birliklari bo‘yicha qilingan ilmiy ishlarni umumlashtirib, aniq tadqiqiga to‘xtalgan olima I.N.Kurchininadir⁵. U “Лингвистический энциклопедический словарь” (“Tilshunoslikning entsiklopedik lug‘ati”) kitobidagi “Murojaat” (“Обращение”) nomli maqolasida “Murojaat – grammatik jihatdan mustaqil va intonatsion jihatdan ajralib turuvchi gap komponenti bo‘lib, u nutq yo‘naltirilayotgan shaxs yoki predmetni bildiruvchi murakkab sintaktik butunlik” deya ta‘rif beradi. Uning tadqiqotlari rus tilidagi murojaatlarning grammatik va intonatsion xususiyatlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan.

Murojaat birliklari an‘anaviy o‘zbek tilshunosligida undalmalar nomi bilan yuritilib, bu borada qator ilmiy tadqiqotlar va darsliklarda qimmatli fikrlar

¹ Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Изд.7 е. –М.1956

² Потебня А.А Из записок по русской грамматике. — Харьков: 1888.

³ Шахматов А.А Синтаксис русского языка.Изд.20е.-Л.Наука.1941.стр86

⁴ Руднев А.Г. Синтаксис современного русского языка.М.1963.стр 242-258

⁵ Кручинина И. Н. Обращение // Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. В. Н. Ярцевой. М.: Советская энциклопедия, 1990. URL: <http://tapemark.narod.ru/les/340f.html>



bildirilgan. Ularda undalmalar ma’no jihatdan tahlil qilinadi va bir nechta mavzuiy guruhlarga ajratiladi. Masalan, undalma vazifasida bosh kelishikdagi otlar, ism-familiyalar, qarindoshlik bildiruvchi soʻzlar, shuningdek, kasb-hunar, amal-unvon, laqab bildiruvchi turli otlar bilan ifodalanib, soʻzlovchining tinglovchiga murojaatlarini bildirishiga aytiladi.

A.G.Rudnevning fikricha, undalmalar gapning uchinchi darajali boʻlagi sanaladi, ushbu qarashni oʻzbek tilshunosligida A.R.Sayfullayev⁶ ma’qullab ilmiy tadqiqotlar yaratdi. Ammo tilshunoslikdagi izlanishlar natijasida, undalmalar gap boʻlaklari bilan sintaktik aloqaga kirishmasligi, faqat gapga mazmunan bogʻlanishi asoslab berildi. Najjada, turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida undalmalar yuzasidan qiyosiy yoʻnalishdagi tadqiqotlar ham yaratila boshlandi. Masalan, A.N.Kononov, A.Gʻulamov, X.Sulaymonovlarning oliy oʻquv yurtlari uchun nashr qilingan darsliklari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Oʻzbek tilshunosligida murojaat birliklari, undalma va vokativ shakllar sintaktik, semantik va kommunikativ jihatdan keng oʻrganilgan. Bu borada qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan boʻlib, ular murojaat birliklarining lingvistik mohiyatini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Xususan, A.R. Sayfullayevning “Oʻzbek tili sodda gap qurilishida uchinchi darajali boʻlaklar” (1972) asarida murojaat birliklarining sintaktik vazifalari koʻrib chiqilgan. A.H. Sulaymonovning “Oʻzbek tilida atov gap, undalma va vokativ gaplar” (1956) nomli tadqiqotida esa murojaat birliklarining gap tarkibida tutgan oʻrni va ularning vokativ gaplar bilan bogʻliqligi tahlil qilingan. Shuningdek, A.Gʻ. Gʻulomovning “Hozirgi zamon oʻzbek tilida konspektiv kurs” “Sodda gap” (1955) kabi ilmiy asarlarida ham murojaat birliklarining grammatik va stilistik xususiyatlariga eʼtibor qaratilgan. M.A. Asqarova bilan hamkorlikda yozilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis” (1965) asarida esa oʻzbek tili sintaksisida murojaat birliklarining funksional jihatlari yoritilgan. B.Oʻrinboyevning “Hozirgi oʻzbek tilida vokativ kategoriya” mavzusidagi tadqiqotida esa murojaat birliklarining vokativ kategoriyasi bilan bogʻliq lingvistik xususiyatlari, ularning pragmatik va kommunikativ funksiyalari tahlil qilingan. Bu ilmiy tadqiqotlar murojaat birliklarini turli aspektlardan – sintaktik, semantik, pragmatik va kommunikativ nuqtayi nazardan chuqur tadqiq qilishga xizmat qilgan boʻlib, oʻzbek tilshunosligida ushbu mavzuning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralishiga asos yaratgan. Keyingi qilingan ilmiy tadqiqotlarda esa, undalmalarni murojaat birligi sifatida oʻrganib, ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini keng yoritib berishga bagʻishlangan.

⁶ Сайфуллаев А.Р. Хозирги узбек адабий тилида ундалма. - Тошкент: Фан, 1968.



Jumladan, Z. Akbarova o‘zining “O‘zbek tilida murojaat shakllarining lisoniy tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida murojaat birliklarini lisoniy jihatdan tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda murojaat shakllarining verbal va noverbal usullari, grammatik, sintaktik va stilistik xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, muloqot jarayonida nutqiy odat shakllarining tahliliga ham e‘tibor qaratilgan.

Tadqiqotchi N.Ahmedova “O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi” nomli filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasida murojaat birliklarini semantik va konnotativ jihatdan tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda murojaat birliklarining ma‘no qatlamlari, ularning qo‘shimcha ma‘nolari va nutqiy kontekstdagi o‘ziga xosliklari o‘rganilgan. Shuningdek, murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlariga e‘tibor qaratgan va lisoniy vositalar orqali reallashadigan murojaat birliklarini tadqiq obyekti qilib olgan.

Bizning fikrimizcha ham, murojaat semasi keng ma‘noga ega bo‘lib, undan undalma degan atama kelib chiqqan, chunki murojaat birligi semasi semantik tarkibida “undash”, “da‘vat qilish”, “buyrish” kabi semalar bilan bir qatorda “e‘tiborni jalb qilish”, “murojaat qilish”, “birovga qarata aytilgan gap”, “chaqiriq” kabi so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan turli konnotativ ma‘nolarini ham ifodalaydi. Demak, “murojaat birligi” birikmasi undalma terminiga nisbatan keng ma‘noni ifodalaydi. Murojaat birligi grammatik jihatdan mustaqil, ijtimoiy va hissiy maqsadga yo‘naltirilgan, alohida intonatsion urg‘u bilan ifodalanadigan birikma bo‘lib, undalma esa ko‘proq hissiy ifoda sifatida ishlatiladi va bevosita shaxsga qaratilmaydi. Tadqiqotlar va tilshunoslarning fikrlari, shuningdek, grammatik va semantik farqlar bu ikki atama o‘rtasidagi alohida farqni isbotlaydi.

Adabiyotlar:

1. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Изд.7 е. –М.1956
2. Потебния А.А Из записок по русской грамматике. — Харьков: 1888.
3. Шахматов А.А Синтаксис русского языка.Изд.20е.-Л.Наука.1941.стр8
4. Руднев А.Г. Синтаксис современного русского языка.М.1963.стр 242
5. Кручинина И. Н. Обращение // Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. В. Н. Ярцевой. М.: Советская энциклопедия, 1990. URL: <http://tapemark.narod.ru/les/340f.html>
6. Сайфуллаев А.Р. Хозирги узбек адабий тилида ундalma. - Тошкент: Фан, 1968.
7. Akbarova Z.A. O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. NDA.-T.:2007.
8. Ahmedova N.Sh. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ talqini. NDA.-T.: 2008